

**10-SINF**  
**(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat,**  
**(B1+: haftasiga 4 soatdan, jami 136 soat))**

***O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:***

***Kommunikativ kompetensiya:***

***B1***

*o'quvchi biologik tushunchaga ega bo'lishi, o'z ona tilida hamda birorta xorijiy tilda dastlabki tushunchalarni ishlata olishi;*

*mavzu bo'yicha tavsiya etilgan o'quv topshiriqlari va o'qituvchining savollariga yozma va og'zaki javob berishda ta'lim olayotgan til me'yorlariga rioya qilish; kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida faol ishtirok etish.*

***B1+***

*maktab, mahalla, jamoat joylari, oilada, sinfda o'rtoqlari bilan ma'naviy-axloqiy me'yorlarga amalga qilgan holda muloqotga kirishish.*

***Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:***

***B1***

*o'quvchi biologiya fanining yangiliklari, rivojlanishi bo'yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni ilmiy-ommabop materiallardan foydalanib, zarur ma'lumotlarni izlab topa olishi;*

*darslikning kirish qismida berilgan ko'rsatmalar asosida o'rganilgan mavzu matniga reja tuza olish;*

*matndan foydalanib savollarga javob topish, amaliy xarakterdagi topshiriqlarni bajara olish.*

***B1+***

*mediamanbalardan izlab topilgan ma'lumotlarni saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish;*

*jadval, diagramma, sxemalar tuza olish, tushuncha, qoidalarni topa olish;*

*mediavositalaridan hayvonot olami haqidagi ma'lumotlar va axborotlarni izlab topa olish.*

***O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:***

***B1***

*biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda faol ishtirok etish;*

*tabiatda o'z xatti-harakatlari bilan o'zini nazorat qila olish.*

***B1+***

*o'zini o'zi ma'naviy, ruhiy va intellektual rivojlantirishi, hayot davomida mustaqil holda o'qib-o'rganishi, bilim va tajribani muntazam oshirib borishi zarur.*

***Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:***

***B1***

*o'quvchi biologiya fanining ilmiy-amaliy soha ekanligini, uning inson va tabiatdagi ahamiyatini anglash, biologiya fani o'rganadigan obyekt, hodisa, jarayonlarni, tirik organizmlar ustida kuzatish va tajribalar olib borish.*

*jamiyatda o'z o'rnini bilgan holda tabiatdagi voqea va jarayonlarga daxldorlikni his etish;*

**B1+**

*tirik organizmlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi, ularning salbiy tomonlarini o'zidan kichik bo'lgan yoshlarga o'rgatish jarayonida faol ishtirok etishi.*

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**B1**

*biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim va tarbiyaning uzviyligiga, estetik va axloqiy tarbiyaga e'tibor qaratish; insonlarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashini hurmat qilishi.*

**B1+**

*madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish; badiiy-ijodiy qobiliyatlarini namoyish qila olishi (turli grafik rasmlar, referatlar, xabarlarning dizayni).*

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**B1**

*o'quvchi kattalashtirib ko'rsatuvchi asboblari va buyumlarni necha marta kattalashtirishini hisoblay olishi, mikroskoplar bilan ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirgan bo'lishi.*

**B1+**

*fanga doir masala va mashqlarni mustaqil ravishda yecha olishi, standart topshiriqlarni bajara olish.*

Sana “ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_-yil.

**Mavzu:** *Biologiya – hayot haqidagi fan. Biologiyaning istiqbolli tarmoqlari. Tirik organizmlarni o‘rganish metodlari: kuzatish, taqqoslash, tajriba, modellashtirish. Biologiya fanining muammolari. Biologiya fanining xalq xo‘jaligi sohalaridagi ahamiyati.*

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

**B1**

*o‘quvchi biologik tushunchaga ega bo‘lishi, o‘z ona tilida hamda birorta xorijiy tilda dastlabki tushunchalarni ishlata olishi;*

*mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan o‘quv topshiriqlari va o‘qituvchining savollariga yozma va og‘zaki javob berishda ta‘lim olayotgan til me‘yorlariga rioya qilish; kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida faol ishtirok etish.*

**B1+**

*maktab, mahalla, jamoat joylari, oilada, sinfda o‘rtoqlari bilan ma‘naviy-axloqiy me‘yorlarga amalga qilgan holda muloqotga kirishish.*

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**B1**

*o‘quvchi biologiya fanining yangiliklari, rivojlanishi bo‘yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma‘lumotlarni ilmiy-ommabop materiallardan foydalanib, zarur ma‘lumotlarni izlab topa olishi;*

*darslikning kirish qismida berilgan ko‘rsatmalar asosida o‘rganilgan mavzu matniga reja tuza olish;*

*matndan foydalanib savollarga javob topish, amaliy xarakterdagi topshiriqlarni bajara olish.*

**B1+**

*mediamanbalardan izlab topilgan ma‘lumotlarni saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish;*

*jadval, diagramma, sxemalar tuza olish, tushuncha, qoidalarni topa olish;*

*mediavositalaridan hayvonot olami haqidagi ma‘lumotlar va axborotlarni izlab topa olish.*

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**B1**

*biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish;*

*tabiatda o‘z xatti-harakatlari bilan o‘zini nazorat qila olish.*

**B1+**

*o‘zini o‘zi ma‘naviy, ruhiy va intellektual rivojlantirishi, hayot davomida mustaqil holda o‘qib-o‘rganishi, bilim va tajribani muntazam oshirib borishi zarur.*

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**B1**

*o‘quvchi biologiya fanining ilmiy-amaliy soha ekanligini, uning inson va tabiatdagi ahamiyatini anglash, biologiya fani o‘rganadigan obyekt, hodisa, jarayonlarni, tirik organizmlar ustida kuzatish va tajribalar olib borish.*

jamiyatda o'z o'rnini bilgan holda tabiatdagi voqea va jarayonlarga daxldorlikni his etish;

**B1+**

tirik organizmlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi, ularning salbiy tomonlarini o'zidan kichik bo'lgan yoshlarga o'rgatish jarayonida faol ishtirok etishi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**B1**

biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim va tarbiyaning uzviyligiga, estetik va axloqiy tarbiyaga e'tibor qaratish;

insonlarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashini hurmat qilishi.

**B1+**

madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish;

badiiy-ijodiy qobiliyatlarini namoyish qila olishi (turli grafik rasmlar, referatlar, xabarlarning dizayni).

#### **Darsning blok sxemasi:**

<b>№</b>	<b>Darsning qismlari</b>	<b>Belgilangan vaqt.</b>
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O'tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

#### **Darsning maqsadi:**

- o'quvchilarni 10-sinfga mo'ljallangan „Biologiya“ darsligi bilan tanishtirish;
- darslikning maqsadlari va vazifalari haqida tushuncha berish;
- darslikdagi materiallarni o'rganish usullarini tushuntirish;
- o'quvchilarga o'rganiladigan ma'lumotlar haqida tushunchalar berish.

#### **Dars materiallari va jihozlari: 1., 10 SINF “ darsligi. .**

2., Mavzuga oid chizmalar

3. Doska, bo'r, daftar.

4. Tarqatma material: darsda o'rganiladigan asosiy atamalar va tushunchalar yozilgan kartochkalar.

#### **I. Tashkiliy qism:**

5. Sinfdan o'quvchilarni darsga jalb qilib, ishchi muhitni yaratish.

6. Sinf holati bilan tanishish va davomadni aniqlash

#### **II. Darsning mazmuni:**

7. Darslikning dasturi, maqsadlari va vazifalari.

8. Darslikdagi materiallar tizimi va uni o'rganish uslubiyati va usullari.

9. O'rganiladigan ma'lumotlar hayotiy bog'liqligi..

### **III. Dars mazmunini ro'yobga chiqarish ustida ishlash:**

11. O'qituvchining 9-sinfidagi „biologiya“ fani vazifalari va xususiyatlari, darslikdagi materiallar tizimi, uni o'rganish uslubiyati va usullari to'g'risida tushuntirish.

#### **Yangi dars bayoni:**

Biologiya Yerdagi hayotning barcha ko'rinishlarini, uning turli darajadagi: molekula, hujayra, organizm, populatsiya (tur), biogeosenoz (ekosistema), biosfera darajasidagi tizimlarning barcha xossalari o'rganadi. Biologiyaning asosiy maqsadi tirik mavjudotlarning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ko'payishi, rivojlanishi, kelib chiqishi, tabiiy jamoalarda va yashash muhiti bilan o'zaro munosabatlarini o'rganishdir. Biologiya atamasi fransuz olimi J. B. Lamark va nemis olimi G. R. Trevina rus tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, «bios» – hayot, «logos» – fan degan ma'noni bildiradi. Insonlar salomatligini saqlash, turli kasalliklarni davolash va ularning oldini olish, inson umrini uzaytirish, tabiatdagi noyob o'simliklar va hayvon turlarini muhofaza qilish, hosildor o'simlik navlari, mahsuldor hayvon zotlari, yangi xususiyatli mikroorganizm shtammlarini yaratish, insoniyatni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash kabi muhim muammolarni hal etish biologiyaning rivojiga bog'liq. Biologiya fanining tarmoqlari. Biologiya fundamental va kompleks fan hisoblanadi. Fundamental fan deyilishiga sabab, biologiya tibbiyot, psixologiya, agronomiya, oziq-ovqat sanoati, farmakologiya uchun nazariy

asos bo'lsa, kompleks fan sifatida esa ko'plab tarmoq fanlarni o'z ichiga oladi. Tekshirish obyekti ko'ra biologiya fani bir qancha sohalarga bo'linadi. Botanika – o'simliklar, zoologiya – hayvonlar, mikrobiologiya – mikroorganizmlar, mikologiya – zamburug'lar, gidrobiologiya – suv muhitidagi organizmlar, paleontologiya – qazilma holdagi organizmlar, ekologiya esa organizm va muhit orasidagi munosabat to'g'risidagi fan hisoblanadi. Biologiya tirik organizmlarning ayrim jihatlarini tekshirish bo'yicha ham turli fanlarga ajraladi. Eksperimental (tajriba) metodi. Maxsus tashkil etilgan sharoitda tirik organizmlar tuzilishi, hayot jarayonlarini o'rganish eksperimental metod orqali amalga oshiriladi. Bu metod organizmlar xatti-harakati, tuzilishi, xossalari mohiyatini tajribalar yordamida chuqurroq tadqiq qilish imkonini beradi. G. Mendelning irsiylanish qonu niyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlari fanda tajriba usulini qo'llashning yorqin namunasidir. Biologik tadqiqotlar uchun zamonaviy asbob-uskunalarining paydo bo'lishi bu usuldan keng foydalanish imkonini berdi. Modellashtirish metodi. Biologik tadqiqotlarda tobora keng qo'llanilayotgan modellashtirish metodining mohiyati tirik tabiatdagi hodisalar va ularning jihatlarini matematik belgilarga aylantirib, model tarzida qayta tiklab o'rganishdan iborat. Biologik jarayonlarni, evolutsiyaning turli yo'nalishlarini, ekosistemalar hamda biosferaning rivojlanishini kompyuterda modellashtirish orqali ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarni oldindan bilish imkoni yaratildi. Biologiya fanining muammolari. Biologiya fanida hali o'z yechimini topmagan bir qancha muammolar mavjud. Hayotning, odamning paydo bo'lishi, bosh miya faoliyati mexanizmlarini o'rganish orqali tafakkur

va xotira qonuniyatlarini anglash, embrional taraqqiyotda genetik axborot asosida to'qima, organlar va organizm rivojlanishini o'rganish shular jumlasidan. Dunyo aholisining soni yildan yilga ortib bormoqda. Binobarin, biologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biri insonlarning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan nazariy va amaliy muammolarni hal etishdan iborat. Bu sohada seleksiyada ko'p yillardan beri qo'llanib kelinayotgan duragaylash, tanlash metodlaridan tashqari, gen muhandisligi – genlarni sintez qilish, ko'chirib o'tkazish, somatik hujayralarni duragaylash, allofen – organizmlar yetishtirish va boshqa metodlardan foydalanish nihoyatda samarali bo'ladi. Insonlardagi irsiy kasalliklarni o'rganish, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish nihoyatda muhim sanaladi. Bu muammoni ijobiy hal etish gen muhandisligi va biotexnologiya sohalarining rivoji bilan uzviy bog'liq. Hozirgi vaqtda eng xavfli hodisalardan biri ekologik muhitning yomonlashayotganligi hisoblanadi. Bu ayniqsa, inson uchun nihoyatda foydali bo'lgan o'simlik va hayvon turlarining yildan yilga kamayib ketayotganligida yaqqol ko'zga tashlanadi.

#### **IV. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash:**

12. Savol-javob va mavzuning asosiy mazmunini takrorlash orqali amalga oshiriladi.

13. Guruhlarda ishlash yakunlarini chiqarish.

#### **V. Dars yakunlarini chiqarish:**

O'qituvchi o'quvchilar bajargan yozma va og'zaki javoblar uchun qo'yilgan baholarni e'lon qiladi va yuzaga kelgan savollarga javob qaytaradi.

**VI. Uyga vazifa:** O'rganilgan mavzu savollariga javoblar tayyorlash.  
**O'quv – tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining imzosi:** \_\_\_\_